ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK 786.2.071:780.8
ORCID: 0009-0009-8211-2922

SHAYMARDANOVA UMIDA
TerDPI 70110601-Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-kurs magistranti
ushaymardanova@gmail.com
ZAKIROVA ZILOLA AZAMOVNA
v.b.dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa dortori (PhD).
Termiz davlat pedagogika instituti.
zakirovazilola@gmail.com

ROMANTIK PIANIZM TARIXI VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA. 1. Tadqiqot maqsadi: Romantik pianizm tarixini, uning shakllanish jarayonini va uslubiy o'ziga xosliklarini o'rganish. Tadqiqotning asosiy maqsadi romantik davrda pianino ijrosining xususiyatlarini aniqlash, hissiy ifoda va ijodiy tafakkurga ta'sirini tahlil qilish.

2. Tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida tarixiy-analitik, taqqoslash, musiqiy matnlarni tahlil qilish va uslubiy xususiyatlarni aniqlash metodlaridan foydalangan. Shu orqali romantik pianizmning texnik murakkabliklari, ritmik erkinligi va dinamik kontrastlari chuqur o'rganildi.

3. Tadqiqot natijalari: Natijalar shuni ko'rsatdiki, romantik pianizm ijrochilikda individual ifodaning ahamiyatini oshiradi, erkin ritmik tuzilma, hissiy boy dinamik o'zgarishlar va texnik murakkabliklarga ega. Shu bilan birga, bu uslub musiqiy interpretatsiyani boyitadi va ijrochilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Xulosalar: Romantik pianizm nafaqat tarixiy rivojlanishi, balki o'ziga xos uslubiy jihatlari bilan musiqiy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu uslub ijrochilarni texnik va hissiy jihatdan rivojlantiradi, ijodiy tafakkurini kengaytiradi hamda interpretatsiya imkoniyatlarini oshiradi. Shu bois, romantik pianizmni o'rganish va amaliy qo'llash musiqiy ta'lim va ijrochilikda katta ahamiyatga ega. [1, b.89].

KALIT SO'ZLAR: *romantik pianizm, tarixiy rivojlanish, uslubiy xususiyatlar, ijrochilik, ritmik erkinlik, dinamik kontrast, texnik murakkablik, hissiy ifoda, interpretatsiya, musiqiy madaniyat, ijodiy tafakkur, pianino ijrosi.*

РОМАНТИЧЕСКИЙ ПИАНИЗМ: ИСТОРИЯ И СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ

АННОТАЦИЯ. 1. Цель исследования: Изучение истории романтического пианизма, процессов его формирования и стилевых особенностей. Основная цель исследования — определить характер исполнения на фортепиано в романтическую эпоху, влияние на эмоциональное выражение и творческое мышление.

2. Методы исследования: В исследовании использовались историко-аналитический метод, сравнительный анализ, анализ музыкальных текстов и выявление стилевых особенностей. Это позволило подробно изучить техническую сложность, ритмическую свободу и динамические контрасты романтического пианизма.

3. Результаты исследования: Результаты показывают, что романтический пианизм усиливает значение индивидуального выражения в исполнительстве, обладает свободной ритмической структурой, богатой динамикой и технической сложностью. Кроме того, этот стиль обогащает музыкальную интерпретацию и расширяет творческие возможности исполнителей.

4. Выводы: Романтический пианизм является не только исторически развивающимся направлением, но и неотъемлемой частью музыкальной культуры с уникальными стилевыми чертами. Исследование показывает, что изучение и практическое применение этого стиля способствует техническому и эмоциональному развитию исполнителей, расширяет творческое мышление и возможности интерпретации.

КЛЮЧЕВЫЙ СЛОВА: *романтический пианизм, историческое развитие, стилевые особенности, исполнительство, ритмическая свобода, динамические контрасты, техническая сложность, эмоциональное выражение, интерпретация, музыкальная культура, творческое мышление, исполнение на фортепиано.*

ROMANTIC PIANISM: HISTORY AND STYLISTIC FEATURES

ABSTRACT: 1. Research purpose: To study the history of Romantic pianism, its development process, and stylistic features. The main aim is to identify the characteristics of piano performance in the Romantic era and its influence on emotional expression and creative thinking.

2. Research methods: The study employed historical-analytical, comparative, and musical text analysis methods, as well as techniques for identifying stylistic features. This allowed for a detailed examination of technical complexity, rhythmic freedom, and dynamic contrasts in Romantic pianism.

3. Research results: The results indicate that Romantic pianism enhances the importance of individual expression in performance, features free rhythmic structures, rich dynamic variations, and technical challenges. Additionally, this style enriches musical interpretation and expands performers' creative potential.

4. Conclusions: Romantic pianism is not only historically developed but also an integral part of musical culture with unique stylistic characteristics. The study shows that learning and applying this style in practice promotes performers' technical and emotional development, expands creative thinking, and enhances interpretative skills.

KEYWORDS: *Romantic pianism, historical development, stylistic features, performance, rhythmic freedom, dynamic contrasts, technical complexity, emotional expression, interpretation, musical culture, creative thinking, piano performance.*

KIRISH. Romantik pianizm jahon nusiqiy merosi tarkibida alohida o'rin tutadi. XIX asrda yuzaga kelgan bu yo'nalish inson ruhiy olamining turli qirralarini ifodalash, hissiy kechinmalarni musiqiy vositalar orqali yetkazish imkoniyatlarini kengaytirdi. [1, b.34]. Hozirgi davrda musiqa san'ati sohasidagi ilmiy izlanishlarda romantic merosni har tomonlama o'rganish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, romantik pianizm o'zining ifoda vositalari, texnik murakkabliklari va ijro erkinligi bilan alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Ammo mavjud tadqiqotlarning aksariyati umumiy xarakterga ega bo'lib, romantik pianizmning shakllanish bosqichlari va uslubiy xususiyatlarini tizimli ravishda, yoritish masalasi haligacha to'liq o'z yechimini topmagan. [2, b.67].

Mazkur tadqiqotning maqsadi — romantik pianizmning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, uning uslubiy yo'nalishlarini ilmiy asosda yoritish va musiqiy merosdagi o'rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

– romantik pianizmning shakllanishiga zamin bo'lgan tarixiy va ijtimoiy-madaniy omillarni o'rganish;

– romantik uslubga xos ifoda vositalari (tempo-rubato, agogika, dinamik-kontrastlar, pedalizatsiya) ni tahlil qilish;

– buyuk romantik kompozitorlar (Shopen, List, Shuman, Brams) ijodidagi uslubiy yo'nalishlarning o'ziga xosligini ochib berish;

– romantik pianizm merosining bugungi kun ijrochilik san'ati va ta'lim jarayonidagi o'rnini baholash hamda tegishli xulosalar chiqarish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Romantik pianizmni o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan uch yo'nalishda – musiqa tarixi, cholg'u ijrochiligi va stilistik tahlil sohasida olib borilgan. Xalqaro miqyosda romantik davr kompozitorlari ijodi, ularning musiqiy merosi va ijrochilik tamoyillariga oid tadqiqotlar yetarlicha keng yoritilgan [2,b.156]. Shunga qaramay, romantik pianizmni uslubiy vositalar tizimi sifatida kompleks o'rganish borasida yetarli tadqiqotlar mavjud emas.

Mavjud ilmiy manbalarda Shopen, List, Shuman va Brams kabi yirik kompozitorlarning pianino asarlari, ularning garmonik tafakkuri va faktura xususiyatlari haqida umumiy tavsiflar uchraydi. Shu bilan birga, ushbu uslubda tempo-rubato, agogika, dinamik kontrastlarga va pedalizatsiya kabi ifoda vositalarining evolyutsiyasi, bosqichma-bosqich takomillashuv jarayoni hamda turli milliy maktablar (polsha, venger, nemis, rus) o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari tizimli tarzda tadqiq etilmagan [3, b.78]. Shuningdek, romantik pianizmga xos texnik murakkabliklarning nota matnlarida aks etishi va ularni talqin qilish bilan bog'liq masalalar ham alohida tahlilni taqozo etadi.

Hozirgi kunda romantik pianizm merosining yangi sharoitlardagi o'zgarish jarayonlari, xususan, an'anaviy ijro usullarining zamonaviy texnik imkoniyatlar va pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot romantik pianizmni tarixiylik, uzviylik va tizimlilik tamoyillariga tayangan holda o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari. Tadqiqot romantik pianizmning tarixiy taraqqiyoti va uslubiy xususiyatlari kompleks jihatdan tahlil qilindi. Natijalar quyidagicha:

1.Romantik pianizmning tarixiy taraqqiyot bosqichlari:

- Klassitsizmdan romantizmga o'tish davri (Betxoven ijodi) yangi ifoda vositalariga zamin yaratgan bo'lib, bu davr ikki yirik uslub o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajargan.

- Ilk romantizm davri (Shubert, Mendelson, Veber)da lirik-kuychan pianizm uslubi qaror topgan, qo'chiqchilik an'analari cholg'u musiqasiga singib, kichik janrlar (ekspromt, musiqiy lahza, so'zsiz qo'shiq) keng tarqalgan.

- Erta romantizm davri ya'ni romantizmning gullagan davrida (Shopen, List, Shuman) ijodida pianino texnikasi misli ko'rilmagan darajada murakkablashgan, tempo-rubato, agogik tebranishlar, va pedalizatsiya kabi ifoda vositalari takomillashgan. Bu davrda pianino orkestr tovushini yaratuvchi universal cholg'uga aylangan.

- Keyingi romantizm ya'ni so'ngi bosqichi va milliy maktablar davri (Brams, Chaykovskiy, Grig, Albenis) ijodida romantik pianizm milliy folklore elementlari boyitilgan. Har bir milliy maktab o'ziga hos uslubiy yo'nalishni namoyon etgan.

2.Romantik pianizmning o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari:

— Ohanglar tuzilishida keng interval sakrashlari, xromatik bezaklar va bel canto uslubining cholg'u musiqasiga moslashtirilgan shakllari ustunlik qilgan.

— Temp-rubato va agogik o'zgarishlar orqali erkin, nafis va hissiy jihatdan boyitilgan ijro uslubi qaror topgan. Shopen rubatosida ohang erkinligi va jo'rning barqaror ritmi uyg'unligi, List rubatosida esa keng ko'lamli temp tebranishlar kuzatiladi [3, b.112].

— Dinamik kontrastlarning kengayishi (ppp dan fff gacha) va pedalizatsiya texnikasining murakkablashuvi romantik pianizmga rang-baranglik va ifodaviylik baxsh etgan.

— Faktura sohasida polifonik va gomofon elementlarining uyg'unlashuvi, orkestr tovushini yaratishga intilish, virtualoz elementlarning (oktava-passajlar, katta pozitsiyadagi akkordlar, poliritmiya) keng qo'llanilgan [4,b.67].

3.Romantik pianizmning zamonaviy ijrochilik amaliyotiga ta'siri:

— Romantik davr merosi bugungi pianinochilarning konsert dasturlarida muhim o'rin egallab, ularning kasbiy mahoratini oshirishda asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

— Zamonaviy musiqa pedagogikasida romantik asarlar orqali ijrochilarda musiqiylik, hissiy ifoda erkinligi va individual talqin qilish qobiliyati rivojlantiriladi [5,b. 89].

— Raqamli texnologiyalar va audioyozuv vositalari orqali romantik pianizm merosining keng targ'ib qilinishi, turli ijrochilik talqinlarini qiyosiy o'rganish imkoniyati yaratilgan.

Natijalarni matnli jadval orqali taqdim etish

Bosqich	Vaqt davri	Asosiy xususiyatlar
Klassitsizmdan Romantizmga o'tish	XVIII asr oxiri – XIX asr boshi	Betxoven ijodida dramatik kontrastlar, individual uslub shaklining erkin talqini
Erta romantizm	1810-1830 yy.	Shubert, Mendelson, Veber ijodida lirik-kuychan pianizm, kichik janrlar (ekspromt, so'zsiz qo'shiq), qo'shiqchilik an'analarining cholg'u musiqasiga ta'siri.
Yuksak romantizm	1830-1850 yy.	Shopen, List, Shuman ijodida tempo-rubato, murakkab pedalizatsiya, keng dinamik diapazon, virtualoz texnika, orkestr tovushini yaratish
Keyingi romantizm va milliy maktablar	1850-1900 yy.	Brams, Chaykovskiy, Grig, Albenis va boshqalar ijodida mumtoz shakl va romantik mazmun uyg'unligi, milliy folklor elementlarining integratsiyasi

Muammolarni muhokama qilish. Tahlil natijalariga ko'ra asosiy muammolar:

1.Romantik pianizm uslubiy xususiyatlarining tizimli o'rganilmasligi:

Tempo-rubato, pedalizatsiya va dinamik kontrastlar kabi ifoda vositalari alohida-alohida tadqiq etilgan, ammo ularning o'zaro bog'liqlikda kompleks tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan [2,b.134].

2.Professional ijrochilikda romantik uslub talqiniga oid yagona yondashuvning yo'qligi:

Ba'zi ijrochilar romantik erkinlikni haddan oshirib yuborsa, ayrimlari klassik qat'iylikka berilib, romantik uslubning asl mohiyatini so'ndirib qo'ymoqda [4, b.89].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, romantik pianizm o'ziga xos va boy merosga ega bo'lib uning ilmiy asosda o'rganilishi musiqa pedagogikasi va ijrochilik san'ati uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot davomida romantik pianizmning shakllanish bosqichlari va tarixiy taraqqiyoti tahlil qilindi. Klassitsizmda romantizmga o'tish davri Betxoven ijodi bilan boshlanib, erta romantizmda Shubert va Mendelson asarlarida lirik-kuychan pianizm uslubi qaror topdi. Yuksak romantizm davrida Shopen, List va Shuman ijodida pianino texnikasi misli ko'rilmagan darajada murakkablashdi, tempo-rubato va murakkab pedalizatsiya kabi ifoda vositalari takomillashdi. Keyingi romantizm bosqichida esa Brams, Chaykovskiy, Grig kabi kompozitorlar tomonidan milliy folklor elementlari bilan boyitildi [1,b.112].

Romantik pianizmning asosiy uslubiy – tempo-rubato, agogik o'zgarishlar, keng dinamik diapazon, murakkab pedalizatsiya va virtualoz texnika elementlaridir. Shopen rubatosida ohang erkinligi va jo'rning barqaror ritmi uyg'unligi, List ijodida esa keng ko'lamli temp tebranishlari kuzatiladi. Faktura sohasida polifonik va gomofon elementlarining uyg'unlashuvi, orkestr tovushini yaratishga intilish romantik pianizmning muhim belgilaridan bo'ldi [3,b.145].

Romantik pianizm merosi bugungi kun ijrochilik amaliyotida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy musiqa pedagogikasida romantik asarlar orqali ijrochilarda musiqiylik, hissiy ifoda erkinligi va individual talqin qilish qobiliyati rivojlantiriladi [5,b.78]. Shu bilan birga, ushbu sohada uslubiy xususiyatlarning tizimli o'rganilmaganligi va professional ijrochilikda yagona yondashuvning yo'qligi kabi muammolar mavjud. Romantik pianizmni ilmiy asosda o'rganish musiqa pedagogikasi va ijrochilik san'ati uchun muhim ahamiyatga ega.

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Zenkin K.V. Fortepiannaya miniatyura I puti muzykalnogo romantizma. – Moskva: Yurayt, 2025. – 413 b. (Piano Miniature and the Paths of Musical Romanticism)

2.Hamilton K. After the Golden Age: Pianism and Modern Performance. – New York: Oxford University Press, 2008. – 304 p. (Oltin asrdan keyin: Romantik pianizm va zamonaviy ijrochilik)

3.Malinkovskaya A. V. Iskusstvo fortepiannogo intonirovaniya. – Moskva: Yurayt, 2025. – 323 b. (Fortepiano intonatsiyasi san'ati)

4.Raykoff I. Dreams of Love: Playing the Romantic Pianist. – New York: Oxford University Press, 2014. – 291 p. (Sevgi orzulari: Romantik pianinochini ijro etish)

5.Kregor J. After the Golden Age: Pianism and Modern Performance // Notes. – 2008. – Volume 65, Number 2. – pp. 306-309. (Oltin asrdan keyin: Romantik pianizm va zamonaviy ijrochilik)

6.Samson J. The Cambridge Companion to Chopin. – Cambridge University Press, 1992. – 341 p. (Kembrij Shopen hamrohi)

7.Gooley D. The Virtuoso liszt. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 280 p. (Virtualoz List)

8.Jensen E.F.Schumann. - Oxford: Oxford University press, 2012. – 368 p. (Schuman)

9.Musiqa tarixi: Romantik davr / umumiy muharrir R.Abdullayev. – Toshkent: Musiqa, 2018. – 256 b. (Music History: Romantic Era)

10.Rosen C. The romantic Generation. – Cambridge: Harvard University Press, 1995. – 723 p. (Romantik avlod)